Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida maqollar tavsifi

Jumayeva Marjona Erkinovna

BuxDU filologiya fakulteti o‘qituvchisi;

Rustamova Shaxruza

BuxDU filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirilgan maqollar va ularning tavsifi keltiriladi. M. Koshg‘ariy asarda uchraydigan maqollar orqali turkiy xalqlarning qadimiy dunyoqarashini, balki urf-odatlari, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy hayotini ham ochib beradi. Bu asar etnolingvistik jihatdan tarixni yorituvchi muhim manba sifatida o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida maqollarning mazmuniy xususiyatlari, ularning til va uslub jihatlari, badiiy ifoda vositalari hamda tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, maqollar orqali xalq donishmandligi, hayotiy tajriba va milliy qadriyatlarning aks etishi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, turkiy urug‘, lingvistik, obyektivlik, fonema, fonetika, fonologiya, graduonimiya, qiyosiy tilshunoslik.

“Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarida XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyo va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning tarixi, ijtimoiy ahvoli, tili, bu hududning geografiyasi va astronomiyasiga oid muhim ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Devonda lingvistik, etnografik, folklor, adabiyot, geografik, toponimik materiallar to‘plangan. Bu nihoyatda obyektiv materiallar hamda ma’lumotlar sifatida qaraladi. Turkologiya olamida shunday bir tushuncha, tasavvur borki, agar kimdir Mahmud Koshg‘ariydan misol keltirib, fikrini asoslayadigan bo‘lsa, demak, u fikr ishonchli fikr sifatida qabul qilinadi. Chunki Mahmud Koshg‘ariydagi o‘sha ma’lumotlar hammasi haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Bu ilmiy kitobgina bo‘lib qolmaydi, aslida bu lug‘at kitobi. Bu shunchaki o‘zbek va arab tili lug‘ati emas, bu bilan Mahmud Koshg‘ariy turkiy tilning qanchalar murakkabligini arablarga, jumladan jamiki musulmonlarga tushuntirib beradi. Biz bu til murakkabligini asosiy qismga o‘tmay turib, asarning kirish qismida guvohiga aylanamiz. “Turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi” (I tom, 44-bet). Hazrati Koshg‘ariy bularni ishonchli buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir olimdan payg‘ambarga nisbat berib aytganligini bayon qiladilar. Hadis sahihligi ishonchli olim tomonidan bayon qilinganligi demakdir.

Asarda maqollar yetarlicha uchraydi. Hozirgi kunda ham qadimgi maqollar mazmunini saqlagan maqollar ham yo‘q emas. Masalan: *“Suv ichirmasga sut ichir”* (I tom, 224-sahifa) Ya'ni senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil degan ma'noda ishlatilgan. Hozirgi kunda esa “Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma” maqolidan foydalaniladi. Undan tashqari, o‘zgarishlarsiz saqlangan maqollarni ham ko‘rishimiz mumkin: *“Et tirnoqdan ajralmas”* (I tom, 187-bet), *“Besh qo‘l (barmoq) barobar emas”*(I tom, 143-bet) kabi.

Qadimgi maqollar ham mavzu qamroviga ko‘ra, ham tuzilishiga ko‘ra xilma-xildir. Ularda vatanparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, insonni ulug‘lash, mardlik, vafodorlik, ezgulik, rostgo‘ylik, kamtarlik kabi mavzular ilgari suriladi. Ijobiy xususiyatlar ulug‘lanib, salbiy xususiyatlar qoralanadi.

[“ӛрдӛм баші ті”] **–** odob boshi til maqoli. “эрдәм” leksemasi izohi – odob, axloq, tarbiya. Misol tarzida bu maqol keltirilgan. Ya’ni shirin tilli bo‘lgan kishi yuqori martaba topadi. Insonning odobi avvalo uning tilidan bilinadi. Odamning qanday tarbiya ko‘rganini, uning ichki dunyosi va madaniyatini,boshqalarga bo‘lgan hurmatini eng avvalo uning gapirish uslubi orqali bilish mumkin. Shuning uchun ham yaxshi so‘z – odobning boshlanishi, yomon so‘z esa odobsizlik belgisi hisoblanadi. Bu maqol mavzusiga ko‘ra *axloqiy-tarbiyaviy (odob-axloq)* mavzusiga kiradi.

[“алп јағїда,алчақ јағїда”]. Botir dushman bilan to‘qnashganda, olishganda yuvosh tirishishda sinaladi. Алп- botir, qahramon. Bu maqolda insonning haqiqiy fazilatlari amaliy holatda, sinov paytida bilinishi aytiladi: Botir odam dushman bilan to‘qnashganda, xavfli vaziyatda o‘zini ko‘rsatadi. Yuvosh – sho‘xlik qilmaydigan, tinch yoki jim yuradigan; beozor kabi izohlari mavjud. Lekin bu izoh bilan ozgina g‘alizlik yuzaga keladi. Biz *yuvosh* so‘zining sabrli ramziy ma'noni kiritamiz. Yuvosh (sabrli) odam esa tirishqoqlikda, mehnat va chidam talab qilinadigan jarayonda bilinadi mazmuni kelib chiqadi.

[“а:ч нӛ̈јӛ̈мäс,тоқ нӛ̈тӛ̈мäс”] – och nimalar yemaydi, to‘q nimalar demaydi. Bu maqol a:ч-och so‘zining izohiga misol sifatida keltirilgan. Maqolning mazmuni juda hayotiy va kuzatuvga asoslangan. Bu yerda ikki xil holat taqqoslanadi:Och odam – juda qiynalgan, muhtoj bo‘lgan inson. U ochlik sabab odatda yeyilmaydigan narsani ham yeyishi mumkin. Ya’ni ehtiyoj odamni majbur qiladi. To‘q odam – qorni to‘q, tashvishi yo‘q inson. U esa o‘ylamay, hatto noo‘rin gaplarni ham aytib yuborishi mumkin. Maqol shuni anglatadiki,inson qiyinchilikda bo‘lsa, har qanday ishga boradi; farovonlikda esa ba’zan tiliga erk berib o‘ylamay gapiradi. Bundan tashqari graduonimiya tashkil qilgan maqol hisoblanadi. Graduonimiya bir holatning darajalar bo‘yicha o‘sishi yoki kamayishidir.Masalan: och - yarim och - to‘q - to‘la to‘q. Och va to‘q so‘zlarida o‘zaro darajalanish xususiyati bor.

[“азӣн кіші нӛ̈ні иӛ̈н санмас”] – boshqa kishining moli qo‘lingda bo‘lsa ham seniki hisoblanmaydi. Bu maqol halollik va adolat g‘oyasini ifodalaydi. Ya’ni, boshqa odamga tegishli bo‘lgan narsa vaqtincha sening qo‘lingda bo‘lsa ham, u baribir egasiniki bo‘lib qoladi. Uni o‘zingniki deb hisoblash yoki o‘zlashtirish to‘g‘ri emas. Bu fikr insonni birovning mulkiga hurmat bilan qarashga, halol bo‘lishga va ishonchni buzmaslikka chaqiradi.

[“қаз қопса, ӧрдӛк көліг ігӛнӱр”] **–** g‘oz qo‘zg‘alsa, o‘rdak ko‘lni egallaydi. Bu maqol jamiyatda yoki biror muhitda kuchli, ta’sirli yoki boshqaruvchi shaxs (g‘oz) o‘rnidan ketganda, uning o‘rnini darhol boshqalar (o‘rdak) egallashi mumkinligini bildiradi.Ushbu maqol hayotdagi o‘zgaruvchanlik, o‘rin almashish va bo‘sh joy qolmasligi g‘oyasini ifodalaydi. Ya’ni bir kuch yoki rahbar yo‘qolsa, uning o‘rniga boshqasi darhol chiqadi.

[“ӣтқа ұұут атса улдан јӛ̈мäс”] – itga uyat kelsa,oriyat qilsa pocha tashlasang ham yemaydi. Bu maqol inson yoki tirik mavjudotning oriyat (uyat, g‘urur) tuyg‘usi kuchli bo‘lsa, u hatto ehtiyoj va ochlik bo‘lsa ham, o‘ziga nomaqbul narsani qabul qilmasligini bildiradi. Ya’ni insonning qadr-qimmati va oriyati moddiy manfaatdan ustun turadi.

[“ӣт ӣсӣрмас, ат тӛ̈пмäс тӛ̈мä”] – it qopmaydi, ot tepmaydi dema. Itning tabiatida qopish, otning tabiatida tepish bor.Bu maqol insonni ehtiyotkorlikka va ehtimolni inkor qilmaslikka chaqiradi. Ya’ni “bunday bo‘lmaydi” deb hech narsaga ishonib bo‘lmaydi,chunki kutilmagan vaziyatlar har doim kutilmaganda yuz beradi.

[“јітӱкліг анасї қојун ачар”] – narsasini yo‘qotgan (odam) onasining qo‘ynini ham ochar, qaraydi. Bu maqol shuni anglatadiki, biror narsasini yo‘qotgan yoki juda zaruratga tushgan odam uni topish uchun har qanday joyni, hatto eng muqaddas va odatda tekshirilmaydigan joyni ham qidiradi.Odam qiyin holatda qolsa, uyat, odob yoki odatiy chegaralarni ham unutib qo‘yishi

mumkin.Zarurat insonni har qanday choraga borishga majbur qiladi. Lekin onadan shubha qilish bu xato ish, shubha iymondan ayiradi. Hayotda yomon ayollar bo‘lishi mumkin,lekin yomon onalar bo‘lmaydi.

[“jазїн қатиғланса қїшїн сэшнўр”] –yozda tirishgan kishi qishda sevinadi. Bu maqol inson hayotidagi mehnat va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Unda “yoz” va “qish” so‘zlari faqat fasl emas, balki ramziy ma’noda ishlatilgan.Inson vaqtida mehnat qilsa, keyinchalik qiyin paytlarda uning rohatini ko‘radi,aksincha, dangasalik qilsa, keyin pushaymon bo‘ladi degan fikrlar yotadi.

Mahmud Koshg‘ariy ko‘p jihatdan birinchilikni olib kelgan olim. Balki bu bizning turkiy tilshunoslikda emas, balki dunyo tilshunosligida dunyo sohalarini boshlab bergan olimlardan biri hisoblanadi. Masalan, tilshunoslikda fonologiya yoki fonetikada fonema tushunchasi bor. Ana shu tushunchani birinchi bo‘lib Mahmud Koshg‘ariy boshlab berdi. Boshqa tilshunosliklar- Yevropa tilshunosligi oddiy tovush bilan fonemani farqini keyinchalik tushunib yetdi. Lekin bizning tilshunoslikda Mahmud Koshg‘ariy XI asrdayoq fonema bilan oddiy tovush o‘rtasidagi farqlarni farqlab berdi. Yana bir jihati shu yerdaki asarda qiyosiy tilshunoslik turibdi. Mahmud Koshg‘ariy keltirgan turkiy tillardan misollarni aniqlashtirish uchun yo arablarga yoki islom mamlakatidagi olimlarga ana shu tushunchani osonroq tushuntirish uchun so‘zlarni arab tilidan olingan, arab tilshunosligida ishlatiladigan atamalar bilan qiyoslaydi. Bu jihatdan Mahmud Qoshg‘ariy qiyosiy tilshunoslikka ham asos solgan olimdir.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, kuzatuvi va dono fikrlarining qisqa ifodasidir. Ular avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib, insonni to‘g‘ri yashashga, mehnatsevar bo‘lishga, odobli va vijdonli bo‘lishga undaydi.Ammo Koshg‘ariy turkiy tildagi maqollarni yozma ravishda avlodlarga yetib kelishiga juda katta hissa qo‘shgan olimdir.Ularda hayotiy haqiqatlar, yaxshi-yomonni ajratish, mehnat va natija, do‘stlik, vatanparvarlik kabi mavzular aks etadi.Asarda maqollar ko‘pincha qisqa, ammo chuqur ma’noli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №1. – 144 б.
2. Шораҳмедов Ш. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. – №4. – 134 б.
3. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.
4. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. III том. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. – Б. 125.
5. Абдураҳмонов Ғ. «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №6. – 454 b.